




**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
YANGI O‘ZBEKISTON
RIVOJIGA TA’SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT
OF NEW UZBEKISTAN**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrası "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



MAS'UL MUHARRIR

Zahidov G'ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY'ATI

G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Ahmedov Durbek Quدراتillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Mahmudov Nosir Mahmudovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar Ashirkulovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mulaydinov Farxod Murotovich – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası mudiri

Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

| | | |
|--|--|---------|
| 55 | ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОПОВЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ - Ходжакулов Мухторжон Назаркулович, | 241-246 |
| 56 | ФОРМАЛИЗАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ СНИЖЕНИЯ РАЗМЕРНОСТИ ПРИЗНАКОВОГО ПРОСТРАНСТВА В ЗАДАЧАХ КЛАССИФИКАЦИИ - Х.Ш. Рашидов | 247-254 |
| 57 | YER OSTI KON ISHLARIDA FOYDALANILADIGAN TEXNIK ISHLANMALARNING INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH - U.M. Mamirov, U.T. Toshtemirov | 255-256 |
| 58 | RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA SMART SHAHTALARNI TASHKIL QILISH - O.SH. Yormatov, U.T. Toshtemirov | 257-258 |
| 5-SHO'BA. QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI YER UNUMDORLIGI, HOSILDORLIK VA NASLLI CHORVA MOLLARINI YETISHTIRISH | | |
| 59 | ПАХТА-ТО'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI - Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li | 260-262 |
| 60 | BUGUNGI KUNDAGI OROL DENGIZI FOJIASI VA UNING OQIBATLARI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Esonaliyeva Madinabonu Shuxratjon qizi | 263-264 |
| 61 | SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLARDA BIOMIKROELEMENTLAR MIQDORI VA RAQAMLI XARITALASH - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abduvaxobova Ximoyatxon Ilxomjon qizi, Ma'rufjonov Javohir G'ayratjon o'g'li, Solijonova Dilafro'zxon Shuxratjon qizi | 265-267 |
| 62 | SHOHIMARDONSOY KONUS YOYILMA TUPROQLARIDA BIOMIKROELEMENTLAR BIOGEOKIMYOSI - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abdulazizov Asilbek Abdulhad o'g'li, Toxirova Madinaxon Rasuljon qizi | 268-270 |
| 63 | ZAMONAVIY DEHQONCHILIKDA TOMCHILATIB SUG'ORISH - Yusupova Mohidil Abdumutalibovna, Abdullaaxatov Asadbek Ilhomjon o'g'li | 271-274 |
| 64 | QUMLI TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA XOSSALARINING O'ZGARISHLARI - Yusupova Mohidil Abdumutalibovna, Ibroximov Shahroz Alisher o'g'li | 275-277 |
| 65 | MEVA VA SABZAVOTLI PASTILLALARNI QURITISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI - Xolikov M.M., Rahbar: Nasirova Sh.N. | 278-280 |
| 66 | QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI RIVOJLANISH OMILLARI - Xoliqov M.M. | 281-282 |
| 67 | ГЕОИНФОРМАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ПОДЗЕМНЫХ ВОД - Мадримов А.Ш. | 283-291 |
| 68 | SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI - M.A.Mirzayeva, M.I.Teshaboyeva | 292-295 |
| 69 | СУФОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАР ШАРОИТИДА БАҲОРГИ МУДДАТДА ЭКИЛГАН СОЯНИНГ 1000 ДОНА ДОН МАССАСИГА ТАСИРИ - Холиқов Аброр Тожимуродович, Қурбонқулова Умида Хусанқизи | 296-298 |
| 70 | QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIYASI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI - Kenjayev Toshbolta Aminovich | 299-303 |
| 6-SHO'BA. ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI | | |
| 71 | ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TURIZM SOHASIDAGI MUAMMOLARGA YECHIMLAR - Ro'ziyev Shohrhubek Ravshanjon o'g'li | 305-308 |

QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIYASI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Kenjayev Toshbolta Aminovich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

kenjayevtoshbolta@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligiga qanday joriy etilayotganini tanqidiy ko'rib chiqadi. Maqolada qishloq xo'jaligi uchun yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va raqamlashtirish strategiyalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, raqamli qishloq xo'jaligi, "aqlli" qishloq xo'jaligi, dronlar.

Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi Respublika hududidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birga, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir [3].

Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chib, tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarning, chunonchi, urug'lik, yem-xashak, ozuqa kabilarning ma'lum bir qismi ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda, tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta'minlanmaydi.


Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash uchun yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismi bu boradagi talablarni qondirish maqsadida ishchi-xizmatchilarga ish haqi o'rniga miqdor holda beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanallar bo'yicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda [3].

Agrar islohotlaning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifa, ichki bozorda iste'molning o'sishi va tashqi bozor konyunkturasi kelib chiqqan holda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa, agrooziq-ovqat sektori iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan kompleks va mutanosib rivojlanishini ta'minlash, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ishlab chiqiladigan strategiyasi asosida qishloqda turmush darajasini yuksaltirish va sifatini oshirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'miniash va fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qollab-quvvatlashning makroiqtisodiy barqarorlik bilan o'zaro bog'liqligiga erishilishini taqozo etadi [4].

OOMB (oziq-ovqat mahsulotlari bozorini) rivojlantirish borasidagi cheklovchi omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) keyingi yillarda kuzatilayotgan aholi pul daromadlarining barqaror o'sish sur'atlariga qaramasdan, aholi xarid qobiliyatining pastligicha qolib ketayotganligi;

2) qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Fermer xo'jaliklari turli bozor segmentlarida, unga mos infratuzilma tarmoq-



larining mavjud emasligi sababli, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish borasida muammolarga duch kelmoqda.

Mahsulotni sotish, saqlash va tashish borasidagi mavjud muammolar mahsulot yetkazib berish geografiyasini, shu jumladan, eksportga mahsulot chiqarishni ham cheklab qo'yadi. Shuningdek, bunga qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti salohiyatidan yetarlicha foydalanilmasligiga, refrejerator vagonlar parkining yetishmasligi kabi asosiy cheklovlar sabab bo'lmoqda.

3) mahsulot sotishning muqobil kanallarining rivojlanmaganligi va monopol korxonalar faoliyatining kuchayishi. Yirik tarmoqli kompaniyalarning bozorda ish olib borish tajribasi, yetkazib berish muddatlari va narxlari borasida fermer xo'jaliklariga katta talablar qo'yilmoqda. Ko'plab savdo tarmoqlari fermer xo'jaliklariga mahsulot yetkazib berishda to'lovlarni kechiktirish shartlari asosida mahsulotni xarid qiladi, bu esa fermer xo'jaliklari aylanma mablag'lari hajmini qisqarishiga olib keladi.

4) Bozorni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiymeyoriv bazasining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ayni vaqtda bozorni tartibga solish masalalari turli qonun va qonunosti hujjatlari, hamda amaldagi standartlar, normativlar va boshqa texnik hujjatlar bilan muvofiqlashtirib borilmoqda. Biroq, respublika qonunchiligida yaxlit, barqaror tizim mavjud emas, rivojlantirishning ustivorliklari va ulami amalga oshirishning aniq yo'nalishlari belgilab olinmagan;

5) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning past darajadali. Bu barcha bozorlardagi raqobat muhitini bo'g'ib qo'yuvchi muhim omildir. Qishloq xo'jaligida hanuz o'z yechimini topa olmayotgan narxlar nomutanosibligida ifodalanuvchi shuningdek, boshqa tarmoqlar bilan mahsulot ayriboshlashning noekvivalentligi muammosini hal etish uchun sohaga katta moliyaviy mablag'lar talab etiladi;

6) respublikamiz fermer xo'jaliklari uchun import mahsulotlar bilan raqobatlashish borasida alohida tovarlar guruhi bo'yicha bir xil shart-sharoitlar ta'min etishda to'sqinlik qiluvchi ichki bozorning yetarlicha himoyalalmaganligi. [4].

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligini samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishining eng muhim omili raqamlashtirish hisoblanadi. Raqamli qishloq xo'jaligi real vaqtda va saytga xos qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun aniq va ma'lumotlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi [4].

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning asosiy elementlari bu boradagi muammolarga yechim bo'ladi (Rasm) [5].

Raqamli baza

Agrosanoat majmuasida qarorlarni qo'llab-quvvatlashtirish tizimlarining raqamli bazasi

Analitika va Big Data

Analitik dasturiy platformalar agrosanoat kompleksining vertikalari (hosilni bashorat qilish, mahsulotlarni iqlimiy xatarlar va boshqalar)



Ishlab chiqarishni raqamlashtirish

Aqli texnologiyalar va robotlashtirish (Sun'iy yo'ldosh va dronlar)

Sotishni raqamlashtirish

Qishloq xo'jaligi barcha mahsulotlarini elektron sotish uchun birjalar asosida kuzatilish

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning asosiy elementlari

Qishloq xo'jaligida biologik va oziq-ovqat xavfsizligi uchun mavjud va kelajakdagi tahdidlarga qarshi turish uchun jamiyat barqaror rivojlanish tamoyillari va chiqindisiz iqtisodiyot modeliga mos keladigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi agrar iqtisodiyotga muhtojdir. Qishloq xo'jaligini modyernizatsiya qilish "aqlli" qishloq xo'jaligiga

o'tishga asoslangan. "Aqli" qishloq xo'jaligi - ishlab chiqarishni integratsiyalashgan avtomatlashtirish va robotlashtirish, qarorlarni qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari, zamonaviy ekotizim modellashtirish va dizayn texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini intellektualizatsiya qilish, bir tomondan, tashqi resurslardan (agrokimyoviy, noorganik o'g'itlar, yoqilg'i va boshqalar) haddan tashqari foydalanishni qisqartirishga, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqarish omillaridan (organik o'g'it, bioyoqilg'i, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqalar) maksimal darajada foydalanishga imkon beradi. Qishloq xo'jaligini "intellektualizatsiyasi" zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: Masalan, yer osti suvlari va tuproqning foydali xususiyatlarini saqlab qolish va tiklash; zararkunandalarga qarshi ekologik toza va samarali kurashni ta'minlash, organik qishloq xo'jaligini sertifikatlashtirish talablariga muvofiqligini masofadan nazorat qilish. Natijada qishloq xo'jaligining, shu jumladan ishlab chiqarishning imkoniyatlari kengayib, qishloq xo'jaligining resurslaridan foydalanish samaradorligi oshmoqda. Keyingi yillarda "Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish" dasturini amalga oshirish rejalashtirilgan[1].

Xususan, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni hisobga olish va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni hisobga olish tizimini yaratish rejalashtirilgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo'jaligining samaradorligini oshiradi va yoshlarni agrobiznesga jalb qiladi. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish dasturining maqsadlaridan biri qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni hisobga olishning yagona axborot tizimini yaratishdir. Bu qishloq xo'jaligi ekinlari aslida qaysi maydonlarda yetishtirilganligini va qancha gektar maydonning ahamiyatsiz ekanligini kuzatish imkonini beradi. Fermerlarni qo'llab-quvvatlash uchun dasturiy ta'minot va kompyuter texnikasini sotib olish xarajatlarini qoplash nuqtai nazaridan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi bu boradagi vaziyatni yengillashtiradi [2].

T a k l i f l a r:

1. Tuman (yoki shahar) hududlarda aholining meva-sabzavotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida hamda dehqon bozorlarda narxlarni barqaror ushlab turish uchun quyidagi tadbirlarni bajarish lozim:
 - Dehqon bozorlari ma'muriyati zimmasiga barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarining aholining daromadlariga mos narxlarda barqaror ushlab turish vazifasi yuklanishi kerak;
 - Dehqon bozorlari ma'muriyati tuman aholisi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq o'rganib chiqib fermer va dehqon xo'jaliklari bilan zarur mahsulotlar uchun fyuchers shartnomalari tuzib chiqish kerak;
 - Dehqon bozorlari tasarrufida meva-sabzavotlarni saqlash omborxonalari tashkil etish.
2. Har bir yer uchastkalarining unumdorlik darajalari (ball bonitetlari) bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur. Bunday tadqiqotlar qaysi yer uchastkalari bo'yicha qancha

o'g'itni qo'llash kerakligini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining xarajatlarini kamaytiradi va hosildorlikni oshiradi.

3. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni Agrosanoat birjalari orqali sotishni yo'lga qo'yish. O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga katta talab bo'lgan xorijiy davlatlarda O'zbekiston Agrosanoat birjasining savdo maydonlarini tashkil etish.
4. Aholi, fermer va dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqargan go'sht mahsulotlarini chorva mollari va chorva ozuqalariga barter qilish sharti bilan qisman eksportga chiqarishga ruxsat berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-sonli farmoni 2019-yil 23-oktabr.

2. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4575-son Qarori 2020-yil 28-yanvar

3. A. Abdug‘aniyev, A.A. Abdug‘aniyev “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, Toshkent, Adib nashriyoti, 2011 yil, 244-247.

4. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti / o‘quv qo‘llanma. Mamatov A.A., Xurramov A.F., Mamatov M.A.- T.: Sanostandart», 2016.

5. T.A. Kenjayev, “Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022 yil 4-son.

6. Abdullayeva I.M., “Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning afzalliklari”, “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy-elektron jurnali. 2021 yil 2-son.